



## HIKOYALARDA RASSOM OBRAZI VA IJODKOR RUHIYATI

*Yusupova Diyora Oloviddin qizi*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat*

*O'zbek tili va adabiyoti*

*universitetining 3-kurs talabasi*

[yusupovadiyora0209@gmail.com](mailto:yusupovadiyora0209@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'zbek hikoyachiligida uchraydigan rassom obrazi, uning badiiy-estetik vazifasi hamda ijodkor shaxsining ruhiy olami tahlil qilinadi. Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" hikoyasidagi va Bayram Alining "Bosiriq" qissasidagi rassom kishilar obrazlari orqali yozuvchi g'oyasi tahlil qilinadi. Hikoyalarda rassom timsoli orqali insonning ichki kechinmalari, jamiyat va san'at o'rtasidagi ziddiyatlar, ijod azobi hamda ma'naviy izlanishlar yoritilishi ochib beriladi. Shuningdek, rassom obrazi bilan bog'liq ramziy-majoziy tasvirlar tahlil qilinib, uning o'zbek nasridagi o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Nazar Eshonqul, Bayram Ali, musavvir timsoli, badiiy obraz, ramz, ijodkor ruhiyati, psixologik tasvir.

**Annotation:** This article analyzes the image of the artist frequently encountered in Uzbek storytelling, its artistic-aesthetic function, and the spiritual world of the creative individual. Through the depiction of artist characters in Maymun yetaklagan odam by Nazar Eshonqul and Bosiriq by Bayram Ali, the author's artistic idea is examined. The article reveals how the artist symbol illuminates human inner experiences, the conflict between society and art, the suffering of creativity, and spiritual quests. In addition, symbolic and metaphorical depictions related to the artist image are analyzed, and reflections are presented on its role and significance in Uzbek prose.



**Key words:** painter image, artistic character, symbol, creator's spirituality, psychological depiction.

**Аннотация:** В данной статье анализируется образ художника, встречающийся в узбекской прозе, его художественно-эстетическая функция, а также духовный мир творческой личности. На примере образов художников в произведениях Maymun yetaklagan odam Nazar Eshonqul и Bosiriq Bayram Ali раскрывается авторская идея. В рассказах через символ художника освещаются внутренние переживания человека, противоречия между обществом и искусством, муки творчества и духовные поиски. Также анализируются символично-метафорические изображения, связанные с образом художника, и рассматриваются его место и значение в узбекской прозе.

**Ключевые слова:** образ художника, художественный образ, символ, духовный мир творца, психологическое изображение.

**Kirish.** Har bir ijodkor badiiy asarlarida hayot haqiqatlarini oddiy tasvir bilan emas, balki turli ramz va timsollar yordamida ifodalashga intiladi. Shu tufayli adabiyotda ma'lum qoliplarga sig'maydigan, teran falsafiy hamda ruhiy ma'nolarni aks ettirib beruvchi obrazlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ayrim ijodkorlar inson ruhiyatidagi murakkab holatlarni telba qahramonlar timsolida yoritgan bo'lsa, ba'zi ijodkorlar esa rassom va uning mo'yqalamida aks etgan suratlar orqali jamiyat, inson va ma'naviyat masalalarini badiiy talqin etadilar.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida rassom obrazi va uning ramziy-estetik vazifasiga murojaat qilgan ijodkorlar orasida Nazar Eshonqul hamda Bayram Ali ijodi alohida e'tiborga loyiqdir.

**Tahlil va mulohazalar.** "Bu yillardagi suratlarda huvillab qolgan qishloqlar va ko'chalar, egalari tashlab ketgan uylar, o'ziga chorlab turgan qabristonlar, o'lim isi kelib turgan har xil qurollar, yig'layotgan ayollar va bolalar, biyday dalani bosib ketgan o'laksaxo'r quzg'unlar, murdalar ortilgan aravalar, panjarali kameralar,



yonib yotgan qishloq qandaydir qo‘rquvdan (xuddi «Pompeyaning so‘nggi kuni» kabi) dong qotib qolgan olomon, sirli maxluqlar, yirtqich hayvonlar, yuzlariga har xil jondorlarning niqoblarini kiyib olgan odamlar (karnaval bo‘lsa kerak deb o‘ylagandim), bazmu jamshid qilib o‘tirgan shotirlar, aroq navlari, turli xil taomlar, yalang‘och ayollar, ma'suma qizlar, qovjirab qolgan gullarning suratlari aks etgan edi.”<sup>1</sup>

Hikoyada tasvirlangan huvillab qolgan qishloqlar, tashlandiq uylar va jimjit ko‘chalar insoniyat boshiga tushgan ma’naviy va ijtimoiy tanazzulning ramziy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Qabristonlar hamda o‘lim isi ufurib turgan qurollar bo‘lsa urush va zo‘ravonlikning insoniyat taqdiriga olib kelgan fojeali oqibatlardan xabar beradi. Yig‘layotgan ayollar va bolalar obrazi esa begunoh insonlarning azobi, urushning eng og‘ir yukini oddiy xalq tortishini badiiy jihatdan yoritishga xizmat qilgan.

Bug‘doyzorni bosib ketgan o‘laksaxo‘r quzg‘unlar tasviri hayot va baraka timsoli bo‘lgan dalaning o‘lim va vayronaga aylanganini ifodalaydi. Murdalar ortilgan aravalar hamda panjarali kameralar inson erkinligining yo‘qolishi, qatag‘on va zulm muhitining kuchayishini ifodalovchi belgilar hisoblanadi. Yuziga turli jonzoqlar niqobini kiygan odamlar esa jamiyatdagi ikkiyuzlamachilik, insonning asl mohiyatini yashirishi va ma’naviy niqob ostida yashashini ifodalaydi. Bazmu jamshid qilib o‘tirgan shotirlar, aroq va turli taomlar tasviri bo‘lsa fojealar orasida ham ayshu ishratni davom ettirayotgan loqayd qatlamning ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Yalang‘och ayollar va ma'suma qizlar obrazi insoniy poklikning tahqirlanishi hamda nafs va shahvatning ustuvor bo‘lib qolganini anglatadi. Qovjiragan gullar esa so‘ngan orzular, yo‘qolgan go‘zallik va umrning foniyligini ifodalovchi poetik ramz vazifasini bajaradi. Bir nechta jumlar orqali butun bir jamiyatni yemirib yotgan illatlarni ramziy ma’nolarga yashirgan holda tasvirlay

<sup>1</sup> .ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/nazar-eshonqul-1962/nazar-eshonqul-maymun-yetaklagan-odam-hikoya



olish ham bu adibning ulkan qalam sohibi ekanidan darakdir. Bu ma'nolarni yashirmasdan, ochiq aytganda asar o'z ta'sir kuchini pasaytirgan bo'lardimi yoki umuman bu voqealar qanchalik haqiqatligini yozuvchi har bir kitobxonning o'z xulosalariga qo'yib bergan.

“Men ko'zimni olib qochish bahonasida nigohimni devordagi rasmlararo yugurtirar ekanman, birdan o'zim uchun tushunarli, oddiygina qilib chizilgan bir rasmni ko'rib qoldim. Rasmda yer shari tasvirlangan bo'lib, unga ko'z va qoshlarning aniq tasviri chizilmagan esa-da, harqalay mudrayotgan odamning yuz qiyofasini ilg'ash mumkin edi.

-Yerni ayniqsa o'xshatib chizibsiz, - o'sha rasmni qo'linga olmoqchi bo'ldim.

- Bu yer emas!

- Unda nima?

- Bu -xudo!”<sup>2</sup>

Rasmda aniq chizilmagan ko'z va qoshlar, mudrayotgan inson qiyofasini eslatuvchi shakl esa insoniyatning ma'naviy uyqu holatini, borliq mohiyatini anglashdan uzoqlashganini ifodalaydi. Shu bilan birga, yerning mudroq qiyofada tasvirlanishi insoniyatning tabiatga nisbatan loqaydligi, ma'naviy tanazzuli va ruhiy uyg'oqlikni yo'qotganiga ham ishora qiladi. Dialogdagi “Bu yer emas! Bu — xudo!” jumlasini orqali muallif oddiy predmet va hodisalarda ham ilohiy mohiyat yashiringanini anglatadi. Ushbu ramz insonning o'zini tabiatdan ustun qo'yishi emas, balki uning bir bo'lagi ekanini eslatishga xizmat qiladi. Asar qahramonining ismining ma'nosi “boy,badavlat” degan ma'noni bildirsa, asardagi voqealarda Norboyning ijtimoiy holati esa buni aksini ko'rsatgan. Bu orqali adib ma'lum bir ma'noda ijod ahli vakillarining asl hayotini ifodab bergan bo'lishi ham mumkin.

---

<sup>2</sup> Bayram Ali. "Bosiriq"-T. "akademnashr".B. 31-32



Adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov ijodkor shaxsi va uning jamiyatdagi o'рни haqida fikr yuritar ekan, san'atkorning ichki ruhiy olami oddiy inson tafakkuridan kengroq ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, haqiqiy ijodkor jamiyat ko'rmayotgan haqiqatlarni ilg'aydi va shu sabab ko'pincha yolg'izlikka mahkum bo'ladi. Bu qarash rassom obrazining adabiy asarlarda tushunilmaydigan, jamiyatdan ajralgan shaxs sifatida tasvirlanishiga asos bo'la oladi. Ayniqsa, rassom timsoli orqali inson ruhiyati, ichki iztiroblar va san'atning falsafiy mohiyati ochib beriladi.<sup>3</sup> Rassom tomonidan yaratilgan surat va undagi ramziy ma'nolarni oddiy xalqning darhol anglay olmasligi, avvalo, ijodkor tafakkurining kengligi hamda uning borliqni boshqacha nigoh bilan idrok etishi bilan izohlanadi. San'atkor ko'pincha jamiyat sezmayotgan ruhiy kechinmalar, ichki ziddiyatlar va ma'naviy bo'shliqlarni tasvir orqali ifodalashga intiladi. Shu bois uning asarlari oddiy nigoh uchun tushunarsiz, mavhum yoki g'ayrioddiy ko'rinadi. Natijada jamiyat bunday ijodkorlarni o'zidan ajratadi, ularni "telba", "g'alati inson" sifatida qabul qiladi.

Aslida esa rassomning yolg'izligi uning ruhiy olami va jamiyat o'rtasidagi tafovut mahsulidir. U ko'pchilik anglamaydigan haqiqatlarni his qilgani sababli ommadan ma'nan uzoqlashadi. Adabiy asarlarda rassom obrazining aynan shu tarzda tasvirlanishi qahramonning ichki fojeasini ochishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bunday timsol kitobxonni chuqur mushohada qilishga, asar tagma'nosini anglashga undaydi. Natijada rassom obrazi nafaqat ijodkor shaxsining ruhiy kechinmalarini, balki jamiyat va san'at o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ham yorituvchi badiiy vositaga aylanadi.

**Xulosa.** Mo'yqalam sohiblari orqali o'z asarlarida olam-olam ma'no bergan yozuvchilarimiz davr ruhini so'zlar yordamida emas balki ranglar tasvirida ifodallab bergan. So'zlar jangi asta-sekin sukut qa'riga cho'kib, o'z o'rnini qalamlarning sokin, ammo teran kurashiga bo'shatib berolgan. Rassom obrazi orqali asarda

<sup>3</sup> Ozod Sharafiddinov Ijodni anglash baxti — Toshkent: Ma'naviyat, 2004.



ko'tarilgan mavzu ko'lami, fojia yuki, obraz badiiyati kengroq va ta'sirliroq ifodalanganiga guvoh bo'lamiz. Bu – shubhasiz, adiblarning badiiy mahoratidan darak beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Назар Эшонкул. Сайланма. 1 жилд. Т.: “Akademnashr”. 2022. – 512 б.
2. Bayram Ali. “Bosiriq”. Т.: “Akademnashr”. В 31-32
3. Ozod Sharafiddinov Ijodni anglash baxti — Toshkent: Ma'naviyat, 2004. – 640 б.